Nodirova M. B., Usmanova S. A., Vaxidova U. A.	
Pedagogika oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan talabalarining sport faoliyati turlari orqali innovatsion texnologiyalarini takomillashtirish	865
Turdiyev Umidjon Kamoliddinovich	
Badiiy adabiyot vositasida nutqida nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutq shakllarini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari	868
Umarova Muhayyo Abdusattor qizi, Mamarajabova Zulfiya Narboyevna	
The Role of Family Support in Fostering Individual Resilience Against Social Offenses (An Integration of Continuing Education, National Values, and Personal Narratives)	873
Khoshimov Lutfullo Khabibullo ugli	
Milliy kiyimlarni zamonaviy material va konstruksiya bilan uyg'unlashtirish	877
Yuldasheva Gulsanam Arken qizi	
Преподавание русского языка в школах Узбекистана глазами будущих педагогов	881
Бахриева Шахноза Давроновна	
Методологические основы дисциплины "Госпитальной педагогики"	886
Равшанова Иноят Эркиновна	
Тропеический блок как ключевой инструмент создания образа восприятия в романе С. Моэма "The Razor's Edge"	889
Тагаева Тамара Баходировна	
Zamonaviy oliy ta'lim muassasalarida ta'lim va tarbiya integratsiyasi	892
D. S. Zokirova	
O'quvchi qizlarni oliy ta'lim muassasalariga yo'naltirishda ota-onalar bilan ishlashning kollaborativ usullari	895
Egamberdiyev Umidbek Xo'jayevich	
Umumta'lim maktablarida kimyo fani o'qitishning samarali usullari	898
Yunusov Mirzoxid Mirzakarimovich, Odilova Feruzabonu Oybek qizi, Soibjonova Gulasalxon Farhodjon qizi	
Ertak qahramonlari obrazlari orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarini axloqiy va kreativ fikrlash sifatlarini shakllantirish	901
Ortiqova Zulfiya Nurmuhamedovna, Dilnavoz Tojiyeva Abduvohid qizi	
Raqamli o'quv muhitida multimedia kontentini loyihalashning didaktik tamoyillari	905
Rustemov Muxamed Biysenbayevich	
The Essence and Content of The Concept of Ecological Culture	908
Sa'dullayeva Zuhra Murodullayevna	



Talabalarda raqamli refleksiyaning shakllantirishi pedagogik muammo sifatida	912
<i>Salixova Muhayyo Shakirovna</i>	
Kasbiy leksik kompetensiya metodikasi shakllanishining tarixiy rivojlanish asoslari	915
<i>Tog'ayeva Maxfuza Abdunazarovna, Tilovova Gavhar Abdaxatovna</i>	
Autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalar tavsifi.....	920
<i>U. M. Utbasarova</i>	
Ta'lim jarayonida qo'llaniluvchi sun'iy intellekt vositalari haqida tushuncha	925
<i>Xakimova Yoqutxon Toxirjon qizi, Pulatova Ziyodaxon Baxodirjon qizi</i>	
Проблемы перевода медицинских терминов: сложности и ошибки, возникающие при переводе медицинской литературы с других языков на русский.....	928
<i>Алибекова Лайло Рахмановна</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorining mediakompetentligini integrativ yondashuv asosida rivojlantirish: model, metodologiya va empirik natijalar	931
<i>Asqarxo'jayeva Movluda Saidmuhammadzokir qizi</i>	
Identifying the Cause of Addiction to Alcohol and Drugs.....	935
<i>Nauruzbaeva Ayjan Sarsenbaevna, Reymov Muxamedali Kengesbayevich, Kalmuratova Sara Umirzakovna</i>	
Methods of Utilising the Legacy of Eastern Thinkers in Education.....	938
<i>Raimova Nasiba Abdreimovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik muloqot madaniyatini shakllantirishda mediasavodxonlikning ahamiyati.....	942
<i>Raximova Zulfiyaxon Xashimjonovna</i>	
Pedagog va maxsus psixologlarni hamkorlikda tayyorlash texnologiyasining tarkibiy komponentlari va ularning xususiyatlari	949
<i>Turg'unov Mirjalol Mirzahamdani o'g'li</i>	
Og'ir vazn yo'qotish (weight cutting)ning organizm fiziologiyasiga salbiy ta'siri	952
<i>Ibragimov Azizbek Ilhom o'g'li</i>	
Языковая политика и её влияние на статус русского языка в образовательной среде Узбекистана ..	956
<i>Бобаназарова Шоира Содиковна, Нурмаматов Бобур Ботирович</i>	
Sun'iy intellekt didaktik ta'limot vositasi sifatida ahamiyati	961
<i>To'raboyeva Mahliyo Qo'zimbek qizi</i>	
Embracing Diversity in the Classroom: Inclusive Education Strategies for Empowering All Learners	964
<i>Bahronova Maftuna Farhadovna</i>	
Ta'lim jarayoniga xalqaro pedagogik tajribani samarali joriy etish: usullar va yondashuvlar	968
<i>Xakimov Sodiqjon Rasuljon o'g'li</i>	
O'quvchilarning umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning shakllari, vositalari, usul va metodlari.....	972
<i>Abdiramanov Bahodir Sag'iydullaevich</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarni zararli odatlarga qarshi kurashga tayyorlashning amaliy holati va tahlili	975
<i>Abdulazizova Nilufar Abdurahmonovna</i>	
Ekologik ta'lim-tarbiyani amalga oshirish mexanizmlari orqali talabalarda ekologik ongini shakllantirish.....	980
<i>Abdullayeva Umidaxon G'ulomidinova</i>	
Tayyorlov guruhi bolalarining tasviriy qobiliyati va ijodkorligini rivojlantirish	983
<i>Abdumuhitorova Mohlaroy Baxtiyorjon qizi</i>	
Psixologik va pedagogik nuqtai nazardan sanogen va patogen tafakkur mexanizmlari	986
<i>Abdushukurova Mushtariy</i>	
Maktabgacha ta'limda estetik tarbiya berishning mazmuni va shakllari	991
<i>Altibayeva Gulbaxor Majitovna</i>	
Methods of Developing Linguocultural Competence Through Teaching Color Concepts	997
<i>Arabova Gulnuz Yuzboy qizi</i>	
Bo'lajak pedagoglarda hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish zarurati.....	1000
<i>Axunbabayeva Shaxnoza Shuxratovna</i>	
Hisor ekspeditsiyasi tarixi	1004
<i>Begaliyeva Mehriniso Olimnazarovna</i>	
Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak fizika o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlashning psixologik-pedagogik asoslari.....	1007
<i>Boqiyev Sarvar Tangirgul o'g'li</i>	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida multimedia vositalaridan foydalanishning ahamiyati	1011
<i>Bozorov Erkin Xodjiyevich, Ergashev Asqar Jong'oboyevich, Sharipov Sharofiddin Arslonqulovich</i>	

The Importance of Specialized Terminology in the Educational Process	1014
Dilnoza Yuldasheva Bekmurodovna	
The Problems of Linguistic Analysis of Elliptical Sentences in Modern English	1019
Eshonkulov Ravshan Tokhirovich, Jurayeva Hilola Kamol qizi	
Boshlang'ich ta'limda sintaksis materiallarini o'qitishda kommunikativ yondashuvning ahamiyati	1025
G'aniyeva Shodiya Azizovna, Nabiyeva Omadxon Rahmonberdi qizi	
Rivojlanishi sust bo'lgan bolalarning psixologik xususiyatlari	1028
Hamroqulova Dilnavoz Fayziyevna, Tohirova Shaxnoza Nodir qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda pedagogik diagnostikaning o'rni va zamonaviy usullari	1031
Hasanova Irodaxon Najmiddin qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda taekvondoga ixtisoslashtirilgan mashqlar majmualari orqali egiluvchanlik sifatlarini rivojlantirish	1034
Iminova Z. B.	
Inklyuziv ta'lim tamoyillari, tizimi va unda o'quvchilarni kasbga yo'naltirishning ahamiyati	1038
Inayatova Nargisa Nishonboyevna	
O'quvchilarda muloqot madaniyati ko'nikmalarini shakllantirishda didaktik o'yinlardan foydalanish	1044
Kalmuratovna Venera Sultanova	
Integrativ yondashuv asosida tarbiyachilarning metakompetentligini rivojlantirish masalalari	1049
Kamola Abdullayeva	
O'rta Osiyo ziyolilarining mehnat tarbiyasi haqidagi fikr-mulohazalari	1052
Karimov Orif Obloqul o'g'li	
Maktab ta'lim tizimida innovatsiyalarning o'rni va ahamiyati	1055
Kistabayeva Gulchexra Jo'raqulovna	
Competency-Based Approach to Organizing the Educational Process for Pre-Service Teachers	1060
Mahkamov Abdulqodir Ismoil o'g'li	
Jismoniy tarbiya darslarida innovatsion metodlarning ta'siri	1063
Makulov Shuxratjon Zokirovich	
Bolalar nutqini rivojlantirishning pedagogik va psixologik asoslar	1067
Mamadjonova Sakina Mo'minjonovna, Maxmudova Oygul Toxirjonovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning tasviriy qobiliyati va ijodkorligini rivojlantirish	1072
Mamatmo'minova Muhabbat G'afforovna	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida vaqtga oid masalalarni yechishda 5E modelidan foydalanishning samaradorligi	1075
Mansurova Umida Mansur qizi	
Inklyuziv ta'limda pedagog, psixolog va ota-onalar hamkorligini takomillashtirishning innovatsion yondashuvlari	1081
Matupayeva Shohsanam Zaripboy qizi	
Sog'lom turmush tarzi – sog'lom kelajak kafolati	1084
Murodov Nozimjon Olimjonovich	
Bolalar nutqini rivojlantirishda ota-onalar bilan hamkorlikning innovatsion shakllari	1088
Nafasova Jamila Turg'un qizi	
Maktabgacha ta'limda ijtimoiy-kommunikativlikni bilingvizm vositasida shakllantirish	1093
Najmiddinova Gulnoza Odilovna	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida kasrlarni o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalarining o'rni va samaradorligi	1097
Jalilov Muhammadali, No'monova Durdonaxon Ulug'bek qizi	
Oliy ta'limdagi matematik kurslarni umumta'lim maktabi dasturlari bilan uyg'unlashtirish modeli	1101
O'rozboyev Nusratbek Ziyaddin o'g'li	
Yosh davrlar psixologiyasi va yoshga doir xususiyatlari	1104
Orifjonova Nazokat Maribjon qizi	
Boshlang'ich sinf darsliklaridagi assosiativ mashqlar orqali o'quvchilarda tabriya tushunchasini rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslari	1108
Ortiqova Zulfiya Nurmaxamatovna, Xomidova Roziyaxon Ilxomjon qizi	
Nemis tili o'qitish jarayonida talabalarni innovatsion-pedagogik faoliyatga tayyorlashda kreativ kompetensiyalarni rivojlantirish texnologiyalari	1112
Ostanov Askarjon Nuriddinovich	



“Ilk qadam” maktabgacha davlat o‘quv dasturining pedagogik-psixologik asoslari	1117
Parmonkulova Mo‘tabar Zaynitdinovna	
Ta’lim sohasida motivatsiyani oshirishning samarali usullari	1121
O. I. Pirmatov, I. S. Sobirova	
Boshlang‘ich ta’limda milliy qadriyatlar asosida tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishning pedagogik asoslari ..	1126
Qurbonova Maxtuma Fazliddinovna, Xolboyeva Dildora Azizovna	
Innovatsion yondashuv asosida talabalarni ijodiy izlanuvchanlik faoliyatiga tayyorlashning mavjud holati .	1131
Rahmatova Barnogul Karimjonovna	
Aqliy rivojlanishning o‘quvchilarda ijodiy qobiliyat rivojlanishiga ta’sirini empirik o‘rganish natijalari tahlili...	1138
Rahmatullayeva Mushtariy Parda qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalar ongida oilaviy munosabatlar tushunchasining rivojlanishi	1143
Rahmonova Dilafro‘z Baxronjon qizi	
Millatlararo oilalarda voyaga yetayotgan bolalarning ijtimoiylashuvi va etnik identifikatsiya jarayonining psixologik xususiyatlari.....	1146
Roziqova Malika Olimovna	
Fizika fanini o‘qitishda o‘quvchilarning amaliy kompetensiyasini tajribalar orqali shakllantirish	1149
Sattorov Boburbek Zokirovich	
Chet tili o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida autentik materiallardan foydalanishning o‘rni va ahamiyati ..	1153
Shaxlo Xalilova, Maqsuda Turapova	
Ta’lim tizimini moliyalashtirish	1156
T. Seydemetov	
Integrating Sports Terminology Into English Teaching	1161
Tursunboyeva Latofat Tuxtamurodovna	
Yuzni skanerlash asosida operatsion tizim foydalanuvchilarini identifikatsiya qilish algoritmlari va dasturiy ta’minotini ishlab chiqish.....	1165
Usmonov Maxsud Tulqin o‘g‘li	
The Impact of Didactic Play on the Development of Medical Students’ Visual Competence	1173
Utambetova Arzayim	
Bo‘lajak o‘qituvchilarda valeologik kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik tizimi	1176
Xudoyberdiyev G‘iyosiddin Baxtiyor o‘g‘li	
Bo‘lajak muhandislarning ilmiy-tadqiqot kompetensiyasini rivojlantirish omillari	1180
Xuramova Farangiz Uchqun qizi	
Inklyuziv ta’lim tamoyillari va uning mazmun-mohiyati	1185
Yakubjanova Muhayyo Qodirjanovna	
Classical Psychoanalysis and its Modifications Among Students: Z. Freud’s Classical Psychoanalysis	1189
Zebiniso Mamarajab qizi Qurbonova	
Talabalarini ilmiy tadqiqot ishlariga yo‘naltirish texnologiyasi	1195
Zikriyayev Faxriddin Ma’mur o‘g‘li	
Проблемы формирования математических представлений детей в дошкольных образовательных организациях.....	1200
Пак Светлана Викторовна	
Теоретические основы формирования навыков говорения у учащихся уровня А2	1204
Сагиндилов Алишер Алеутдинович	
Проблема готовности детей старшего дошкольного возраста к обучению в школе	1208
Ширбачеева Гульчебра Шакировна	
Роль оздоровительной аэробики в повышении физической подготовленности учащихся	1211
Яхшиева Мехринигор Шавкатовна	
Zamonaviy futbol taktikalarining rivojlanishi va jamoa o‘yiniga ta’siri	1216
Mirzamatov Akramjon G‘apurjonovich	
Mehnat bozorining zamonaviy talablariga mos ta’lim modellarini loyihalash va metodik asoslarini ishlab chiqish	1219
Bannayev Qosimjon Qodirjonovich	

BO'LAJAK PEDAGOGLARDA HAYOTIY KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH ZARURATI

Axunbabayeva Shaxnoza Shuxratovna

Jizzax davlat pedagogika universiteti
Maktabgacha ta'lim nazariyasi va
metodikasi kafedra o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak pedagoglarda hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishning mazmuni, pedagogik jarayondagi o'rni, zaruriyati va rivojlantirish yo'llari ilmiy asosda tahlil qilinadi. Hayotiy ko'nikmalar shaxsning ijtimoiy, kasbiy va shaxsiy hayotda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun zarur bo'lgan kompetensiyalar majmui sifatida izohlanadi. Maqolada kommunikativ, reflektiv, tanqidiy fikrlash, stressni boshqarish, ijtimoiy moslashuv va jamoaviy hamkorlik ko'nikmalarini shakllantirishning metodik asoslari ochib berilgan. Shuningdek, zamonaviy raqamli ta'lim muhitida pedagogning hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirishga oid innovatsion yondashuvlar yoritiladi.

Kalit so'zlar: hayotiy ko'nikmalar, pedagogik kompetensiya, shaxsiy rivojlanish, refleksiya, kommunikativ madaniyat, ijtimoiy moslashuv, kreativlik, tanqidiy fikrlash, raqamli kompetensiya, interaktiv ta'lim.

Abstract: This article provides a scientific analysis of the essence, significance and pedagogical role of developing life skills among future teachers. Life skills are defined as a set of competencies necessary for effective social, professional and personal functioning. The article explains the methodological foundations for forming communication, reflection, critical thinking, stress management, social adaptation and teamwork skills. It also highlights innovative approaches to strengthening teachers' life skills within the modern digital learning environment.

Key words: life skills, pedagogical competence, personal development, reflection, communication culture, social adaptation, creativity, critical thinking, digital competence, interactive learning.

Аннотация: В статье проводится научный анализ сущности, значимости и педагогической роли формирования жизненных навыков у будущих педагогов. Жизненные навыки рассматриваются как совокупность компетенций, необходимых для успешной социальной, профессиональной и личностной деятельности. В работе раскрыты методические основы развития коммуникативных, рефлексивных, критически-мыслительных навыков, стрессоустойчивости, социальной адаптации и командного взаимодействия. Кроме того, представлены инновационные подходы к развитию жизненных навыков педагога в условиях современной цифровой образовательной среды.

Ключевые слова: жизненные навыки, педагогическая компетентность, личностное развитие, рефлексия, культура общения, социальная адаптация, креативность, критическое мышление, цифровая компетентность, интерактивное обучение.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimi globallashuv, raqamli transformatsiya va ijtimoiy o'zgarishlar sharoitida inson kapitalini shakllantirishning eng muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Hozirgi davrda ta'limning maqsadi faqat nazariy bilim berish bilan cheklanmay, balki o'quvchi yoki talabani real hayotiy vaziyatlarda mustaqil fikrlay oladigan, muammolarni samarali hal eta oladigan, mas'uliyatli, moslashuvchan va ijodkor shaxs sifatida tayyorlashni ham nazarda tutadi. Shu bois, hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish masalasi zamonaviy ta'lim siyosati va pedagogik amaliyotning ustuvor yo'nalishiga aylanmoqda.

Ta'lim jarayonida o'zlashtirilgan nazariy bilimlar amaliy faoliyat, ijtimoiy munosabatlar va kasbiy qarorlar qabul qilishda qo'llanilgandagina o'quvchi yoki talabaning shaxsiy va kasbiy muvaffaqiyatiga xizmat qiladi. Shu sababli zamonaviy pedagogika "bilim berish"dan ko'ra "kompetensiyalarni shakllantirish"ga, ya'ni shaxsning bilimni amalda qo'llash, muammoli vaziyatlarda to'g'ri yo'l tanlash va ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirok etish qobiliyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratadi.

UNESCO (2013) ta'rifiga ko'ra, hayotiy ko'nikmalar – shaxsning turli vaziyatlarda samarali muloqot qilish, muammo yechish, emotsiyalarni boshqarish, hamkorlikda ishlash, tanqidiy fikrlash va asosli qarorlar qabul qilish



imkonini beruvchi kompetensiyalar majmuasidir. Bunday ko'nikmalar insonning o'z hayotiga ongli yondashuvi, stressli holatlarda o'zini nazorat qila olishi hamda atrof-muhit bilan konstruktiv munosabat o'rnatishiga xizmat qiladi.

Butunjahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO) hayotiy ko'nikmalarni shaxsning ruhiy salomatligi va ijtimoiy farovonligini qo'llab-quvvatlovchi muhim omil sifatida e'tirof etadi. Unga ko'ra, hayotiy ko'nikmalar yoshlarni murakkab va noaniq hayotiy vaziyatlarda muvozanatli qarorlar qabul qilish, ijtimoiy aloqalarni samarali yo'lga qo'yish va psixologik bosimlarga bardosh berishga tayyorlaydi.

Bo'lajak pedagoglar uchun mazkur masalaning dolzarbligi yanada yuqoridir. Chunki o'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki jamiyatda ma'naviy qadriyatlar, axloqiy tamoyillar va ijtimoiy ongni shakllantiruvchi yetakchi shaxsdir. Shunday ekan, pedagogning o'zi hayotiy ko'nikmalarga ega bo'lishi, kasbiy refleksiya, axloqiy mas'uliyat va insonparvarlik tamoyillariga asoslangan faoliyat yuritishi muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (2020), "Milliy o'quv dasturi" (2021) hamda 2022–2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish konsepsiyasida o'qituvchilarda ijtimoiy, kommunikativ, axloqiy, raqamli va muammoli fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirish davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Ushbu hujjatlarda pedagogning zamonaviy ta'lim muhitida nafaqat bilim manbai, balki shaxsiy o'sish, ijtimoiy moslashuv, kasbiy refleksiya va hayotiy qadriyatlarni shakllantiruvchi yetakchi sifatida faoliyat yuritishi zarurligi ta'kidlanadi.

OECD tomonidan ishlab chiqilgan "Future of Education and Skills – 2030" konsepsiyasida ham XXI asr kompetensiyalari tarkibida hayotiy ko'nikmalarga alohida o'rin berilgan. Mazkur yondashuvga ko'ra, muvaffaqiyatli pedagog o'z faoliyatida ijtimoiy–emotsional barqarorlikni saqlaydi, kommunikativ hamda raqamli muhitda samarali ishlaydi, o'quvchilar uchun ijobiy shaxsiy namuna bo'ladi va hayotiy qadriyatlarga asoslangan kasbiy qarorlar qabul qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishga oid ilmiy manbalar pedagogik kompetensiya, kommunikativ madaniyat va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan turli ilmiy yondashuvlarni yoritadi. UNESCO hamda WHO hayotiy ko'nikmalarni shaxsning ijtimoiy moslashuvi, emotsional barqarorligi va murakkab vaziyatlarda asosli qarorlar qabul qilishini ta'minlovchi yetakchi kompetensiyalar sifatida talqin qiladi. Schön reflektiv amaliyotning o'qituvchi tayyorlash jarayonidagi ahamiyatini ilmiy asosda izohlaydi, Goleman esa emotsional intellektning pedagog shaxsining professionallik darajasini shakllantirishdagi o'rnini ta'kidlaydi. Prensky raqamli savodxonlikni zamonaviy pedagogning ajralmas hayotiy ko'nikmasi sifatida ko'rsatadi. Mazkur ilmiy yondashuvlar bo'lajak pedagoglarda hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirishning konseptual-metodik asosini yaratadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda bo'lajak pedagoglarda hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish jarayonini o'rganish uchun mazmuniy tahlil, taqqoslash hamda ilmiy-nazariy umumlashtirish metodlaridan foydalaniladi. Avvalo UNESCO, WHO va OECD kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan berilgan hayotiy ko'nikmalar talqinlari tahlil qilinib, ularning pedagogik ta'lim jarayoniga tatbiq etilish imkoniyatlari baholanadi. Shuningdek, Schönning reflektiv yondashuvi, Goleman tomonidan ishlab chiqilgan emotsional intellekt nazariyasi va Prensky ilgari surgan raqamli kompetensiya modeli pedagogning shaxsiy va kasbiy kompetensiyalarini o'rganishda asosiy nazariy manba sifatida qo'llaniladi. Olingan ilmiy ma'lumotlar mazmuniy tahlil asosida qayta ishlanib, hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirishning eng samarali yo'nalishlari aniqlanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy pedagogikada "hayotiy ko'nikmalar" (life skills) tushunchasi insonning har tomonlama rivojlantirish, ijtimoiy moslashuvi va kasbiy muvaffaqiyatiga xizmat qiluvchi bilim, ko'nikma, qadriyat va munosabatlar majmuasi sifatida talqin etiladi. Bunday ko'nikmalar shaxsning nafaqat nazariy bilimni egallashi, balki uni amaliy faoliyatda to'g'ri qo'llashi, o'zini boshqarishi va ijtimoiy muhitda samarali faoliyat yuritishini ta'minlaydi. Hayotiy ko'nikmalar mohiyatan kompetensiyaviy yondashuv bilan bevosita bog'liq bo'lib, o'quvchi yoki talabanning shaxsiy, ijtimoiy va kasbiy salohiyatini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO) hayotiy ko'nikmalarni shaxsning kundalik hayotda ijobiy va samarali xulq-atvor namoyish etishiga imkon beruvchi psixologik hamda ijtimoiy qobiliyatlar yig'indisi sifatida izohlaydi.

Pedagogik adabiyotlarda hayotiy ko'nikmalar shaxsiy, ijtimoiy hamda kognitiv-kasbiy yo'nalishlarda talqin qilinadi. Shaxsiy hayotiy ko'nikmalar insonning o'zini anglash, o'zini boshqarish, maqsad qo'yish, vaqtni bosh-

qarish, stressni yengish va sog'lom turmush tarziga amal qilish kabi jarayonlarini o'z ichiga oladi. Ijtimoiy hayotiy ko'nikmalar esa muloqot madaniyati, faol tinglash, empatiya, jamoada ishlash va nizolarni konstruktiv hal etish kabi ijtimoiy o'zaro ta'sirni talab qiluvchi qobiliyatlardan iborat bo'lib, pedagogning kasbiy kompetensiyalarida alohida ahamiyatga ega. Kognitiv va kasbiy hayotiy ko'nikmalar tanqidiy, refleksiv va ijodiy fikrlashni qamrab olib, pedagogning faoliyatini tahlil qilish, yangi g'oyalar ishlab chiqish va muammoli vaziyatlarda innovatsion yechimlar topish imkoniyatini shakllantiradi.

Eriksonning shaxs rivojlanish bosqichlari nazariyasiga ko'ra, hayotiy ko'nikmalar insonning shaxsiy identifikatsiya jarayonida shakllanadi, Goleman esa "Hissiy intellekt" konsepsiyasi orqali emotsional barqarorlik, o'zini tuta bilish va boshqalarni anglash qobiliyatlarini hayotiy muvaffaqiyatning asosiy omillari sifatida ta'kidlaydi. Shu bois, bo'lajak pedagogning hayotiy ko'nikmalarga ega bo'lishi uning pedagogik jarayonda samardorlikni oshirishi, o'quvchilar bilan sog'lom muloqot o'rnatishi va muammoli vaziyatlarda oqilona qaror qabul qilish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Pedagogik oliy ta'lim muassasalarida hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish maxsus metodik yondashuvlarni talab etadi. O'quv jarayonining markazida talaba shaxsi, uning faol ishtiroki, amaliy tajribaga asoslangan o'rganishi hamda o'z ustida muntazam ishlashi turadi. Interaktiv metodlar – o'qituvchi va talaba o'rtasida samarali hamkorlikni tashkil etuvchi usullar bo'lib, hayotiy ko'nikmalarni tabiiy shakllantirishga xizmat qiladi. Bunga keystadi, debat, rolli o'yinlar, treninglar, "aqliy hujum" va klaster kabi metodlar kiradi. Masalan, "Pedagogik nizolarni hal etish" mavzusidagi rolli o'yinlar talabalarni real vaziyatlarni modellashga, etik, huquqiy va emotsional mezonlar asosida asosli qaror qabul qilishga o'rgatadi. Bu jarayon kommunikativ madaniyatni, empatyani va stressni boshqarish qobiliyatini rivojlantiradi.

Muammoli ta'lim (problem-based learning) hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishning yana bir samarali metodidir. Muammoli vaziyatlar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar talabalarni tanqidiy fikrlashga, tahliliy yondashuvga va dalillarni solishtirishga yo'naltiradi. Ernest Boyer (1990) ta'kidlaganidek, haqiqiy pedagog – bu o'qish bilan birga tadqiqot olib boruvchi, yangilik izlovchi va o'z faoliyatini tahlil qila oluvchi shaxsdir. Muammoli ta'lim jarayonida talaba tayyor javobni emas, balki muammoning mohiyatini anglaydi va yechimni mustaqil shakllantiradi. Bu yondashuv hayotiy qaror qabul qilish, fikrlashda moslashuvchanlik va ijtimoiy mas'uliyat hissini kuchaytiradi.

Reflektiv yondashuv ham hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Refleksiya o'z faoliyatini tahlil qilish, baholash va o'z-o'zini muntazam rivojlantirishga yo'naltirilgan jarayon bo'lib, Donald Schönning "refleksiv amaliyotchi" modeli bo'lajak pedagoglarni o'z pedagogik faoliyatiga tanqidiy-nazariy yondashishga o'rgatadi. Reflektiv amaliyot pedagoglarda kasbiy o'zini anglash, o'zini baholash va o'zini takomillashtirish madaniyatini shakllantiradi.

Treninglar va amaliy mashg'ulotlar talabalarining kommunikativ, emotsional va stressni boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Bunday mashg'ulotlarda "empatiya va tinglash madaniyati", "jamoada yetakchilik va ishonch", "o'zaro hurmat va ijtimoiy mas'uliyat" kabi hayotiy kompetensiyalar shakllanadi. Treninglar natijasida talabalar o'zini tutish strategiyalarini, stressni boshqarish usullarini va sog'lom psixologik muhitni yaratish tamoyillarini amaliy tarzda o'zlashtiradi.

XXI asrda raqamli kompetensiya hayotiy ko'nikmalarning zamonaviy ko'rinishi sifatida e'tirof etiladi. Marc Prensky (2001) tomonidan ilgari surilgan "raqamli avlod" nazariyasiga ko'ra, bugungi yoshlar raqamli axborot muhitida shakllanmoqda. Shu bois, o'qituvchi zamonaviy talaba ehtiyojlariga mos raqamli savodxonlik va kompetensiyalarga ega bo'lishi zarur. UNESCO (2018) tomonidan ishlab chiqilgan "ICT Competency Framework for Teachers"da o'qituvchilarning AKT bo'yicha bilim va ko'nikmalariga ta'lim sifatini oshiruvchi asosiy kompetensiya sifatida qaraladi. Raqamli kompetensiya tarkibiga onlayn ta'lim platformalaridan foydalanish, raqamli resurslar yaratish, axborotni izlash va tanqidiy baholash, raqamli muloqot madaniyatiga ega bo'lish, virtual jamoalarda ijodiy hamkorlikda ishlash kabi ko'nikmalar kiradi. Raqamli savodxonlikni o'zlashtirgan bo'lajak pedagog o'quvchilar bilan samarali kommunikatsiya o'rnatadi, innovatsion metodlarni qo'llaydi va dars jarayonini interaktiv shaklda tashkil etadi.

Hayotiy ko'nikmalarni baholashda pedagogik portfoliolar muhim rol o'ynaydi. N. Lyons (1993) ta'rifiga ko'ra, pedagogik portfolio – bu shaxsning o'z kasbiy o'sishi, yutuqlari va refleksiv faoliyatini aks ettiruvchi hujjatlar to'plamidir. Unda amaliy mashg'ulotlar natijalari, treninglar va seminarlar bo'yicha ma'lumotlar, refleksiv yozuvlar, pedagogik g'oyalar, shaxsiy rivojlanish rejalari va o'zini baholash natijalari jamlanadi. Portfolio talabalarga o'z kasbiy rivojlanishini kuzatish, mas'uliyat bilan ishlash, innovatsion yondashuvlarni qo'llash va o'z yutuqlarini tizimli ravishda hujjatlashtirish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, pedagogik portfoliolar o'qituvchi nomzodning nafaqat nazariy bilimini, balki uning amaliy, ijtimoiy va kommunikativ salohiyatini ham ko'rsatib beruvchi kompetensiyaviy baholash vositasi sifatida ahamiyat kasb etadi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak pedagoglarda hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish zamonaviy ta'lim tizimining eng muhim strategik yo'nalishlaridan biridir. Chunki bugungi o'qituvchi nafaqat bilim beruvchi mutaxassis, balki ijtimoiy hayotda faol ishtirok etuvchi, ma'naviy barkamol, muloqotga ochiq va o'zini boshqara oladigan shaxs bo'lishi zarur. Hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish jarayoni pedagogning kasbiy, shaxsiy va axloqiy kamolotini ta'minlaydi hamda uni o'z faoliyatida insonparvarlik va mas'uliyat tamoyillariga amal qiluvchi yetakchi mutaxassis sifatida shakllantiradi.

Bunday ko'nikmalarga ega pedagog kasbiy barqarorlikni saqlaydi, o'quvchi va ota-onalar bilan sog'lom kommunikativ muhit yaratadi, empatiya, tinglash madaniyati va o'zaro hurmatni namoyon etadi, muammoli pedagogik vaziyatlarda tanqidiy hamda ijodiy fikrlash asosida samarali yechimlar ishlab chiqadi. Shuningdek, u refleksiya asosida o'z faoliyatini muntazam baholab, o'zini rivojlantirishga intiladi hamda stressli sharoitlarda psixologik barqarorlikni saqlay oladi. Hayotiy ko'nikmalar pedagogning kasbiy etika, deontologik yondashuv va insonparvarlik qadriyatlariga sodiqligini mustahkamlaydi, natijada o'qituvchi shaxsi nafaqat bilim manbai, balki axloqiy namuna va ijtimoiy yetakchi sifatida shakllanadi.

Rivojlangan davlatlar tajribasi ta'lim sifatining oshishi pedagoglarning hayotiy kompetensiyalar darajasi bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi. UNESCO va OECD kabi xalqaro tashkilotlarning hisobotlarida o'qituvchilarda ijtimoiy, kommunikativ, axloqiy va raqamli ko'nikmalarni rivojlantirish barqaror ta'lim tizimini shakllantirishning ustuvor omili sifatida e'tirof etiladi. Shu sababli O'zbekiston ta'lim tizimida ham hayotiy ko'nikmalarni pedagogik tayyorgarlikning ajralmas qismi sifatida rivojlantirish dolzarb ahamiyatga ega.

Hayotiy ko'nikmalarga ega pedagog o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshiradi, ularni mustaqil fikrlaydigan, mas'uliyatli va ijobiy hayot pozitsiyasiga ega shaxslar sifatida tarbiyalaydi, ta'lim jarayonida insonparvarlik, adolat, hurmat va hamkorlik tamoyillarini singdiradi, jamiyatda o'qituvchi nufuzining oshishiga va ta'lim sifatining yuksalishiga xizmat qiladi. Shu bois oliy pedagogik ta'lim tizimida hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish yo'nalishi nafaqat ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi, balki yoshlarning kasbiy motivatsiyasini kuchaytiradi, pedagogik qadriyatlar va axloqiy madaniyatni rivojlantiradi, yangi avlod o'qituvchilarining intellektual salohiyatini yuqori bosqichga olib chiqadi va ta'lim sohasida innovatsion fikrlash hamda raqamli kompetensiyani kengaytiradi.

Xulosa sifatida ta'kidlash joizki, hayotiy ko'nikmalar nafaqat ta'lim samaradorligini belgilovchi omil, balki insoniylik, mas'uliyat va kasbiy yetuklikning muhim mezonidir. Shu sababli har bir bo'lajak pedagog bu ko'nikmalarni egallashni shaxsiy va kasbiy muvaffaqiyatga eltuvchi ustuvor qadriyat sifatida qabul qilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Erkinova S. R. Teaching English Precedent Phenomena at Linguistic University. Science and Innovation, 2025.
2. Tojiyev M., Ziyomuhhammadov B. Milliy pedagogik texnologiyaning ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiqi. Monografiya. Toshkent: "Mumtoz so'z", 2011.
3. Schön D. A. The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action. Basic Books, 1983.
4. OECD. Teachers Matter: Attracting, Developing and Retaining Effective Teachers. Paris, 2005.
5. Lyons N. Portfolios as Assessment and Learning. Boynton/Cook Publishers, 1993.
6. Prensky M. Digital Natives, Digital Immigrants. On the Horizon, 9(5), 2001.
7. UNESCO. ICT Competency Framework for Teachers. 2018.
8. Boyer E. Scholarship Reconsidered: Priorities of the Professoriate. Princeton University Press, 1990.
9. Goleman D. Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ. Bantam Books, 1995.
10. Erikson E. Identity: Youth and Crisis. Norton, 1968.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.